



LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE SPEECH OF UZBEK WOMEN

Turg'unova Marjonabonu Obidjon qizi¹

G.I. Narmurodova²

Uzbekistan State University of World Languages

KEYWORDS

linguoculturology,
sociolinguistic, linguocultural
units, gender, coloring,
culturology, speech etiquette,
speech behavior

ABSTRACT

In this article, the field of linguistics, the essence of linguistics, linguistic and cultural units and their use in positive and negative places in the speech of Uzbek women, sociolinguistic and linguocultural analysis is carried out and proved on the basis of examples.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.12567023**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student, Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

² Associate Professor, Ph.D., Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent, Uzbekistan

O'ZBEK AYOLLARI NUTQINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

lingvokulturologiya,
sotsiolingvistika,
lingvomadaniy birliklar,
gender, bo'yoqdorlik,
kulturologiya, nutqiy etiket,
nutqiy muomala

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi, mazmun mohiyati, lingvomadaniy birliklar va ularning o'zbek ayollari nutqidagi ijobiy va salbiy o'rinlarda qo'llanilishi, sotsiolingvistik va lingvokulturologik tahlili amalga oshirilgan va misollar asosida dalillangan.

Kirish

Inson dunyoga kelibdiki, u jamiyatning bir bo'lagiga aylanadi va uning ana shu jamiyatda shaxs sifatidagi mavqeyi, o'rnini so'zlashuv vositasi bo'lmish "til" til yordamida ifodalovchi nutqi, madaniyati belgilaydi. Demak, til inson hayotining ajralmas bo'lagi va inson madaniyatining tashqi ifodasi hamdir. Til inson muloqati uchun xizmat qilgan holda, uning nutqini yuzaga chiqaradi. Insonlar tilning turli xil o'ziga xos birliklarini nutqda mujasamlashtirish orqali o'z nutqiy etiketini namyon qiladi.

Albatta, tilning o'ziga xos jihatlari, til birliklari ayni tilning joylashgan o'rni, undan foydalanuvchi jamiyatning qadriyati, madaniyatiga bog'liq holda yuzaga keladi va jamiyat bilan bardavom rivojlanib boradi. Ayni shu o'rinda, tilning kulturologik jihatini tadqiq qiluvchi "Lingvokulturologiya" sohasi namoyon bo'ladi. Bu soha XX asrning 90-yillarida vujudga kelgan bo'lib, lotincha "lingua" va "cultus-ta'zim qilish" so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan.³ Ushbu maqola orqali biz lingvokulturologiya sohasi va o'zbek ayollari nutqining lingvomadaniy tahlillari bilan tanishamiz.

Asosiy qism

Lingvokulturologiya til va madaniyat tushunchalari o'zaro kesishgan nuqtada vujudga kelgan va u tilda namoyon bo'luvchi xalq madaniyatining tildagi ko'rinishini tahlil qiladi. Ayniqsa, bu soha birliklarining ayollar nutqidagi ko'rinishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'zbek ayoli nutqidagi manadiyat, latofat, so'z kuchi bilan insonga ta'sir o'tkazish kabi jihatlar lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyektidan biri sanaladi. Qolaversa, o'zbek ayollari nutqidagi madaniylik haqida so'z borganda, gender tavofuti yuzaga keladi, ya'ni o'zbekim ayolining nutqida erkaklarga (otasiga, aka-ukalari, turmush o'rtog'iga) nisbatan bo'ysunuvchanlik kabi xarakterlari namoyon bo'ladi.

Ayollarning erkaklardan ko'ra ancha ifodali, mayin past ohangda so'zlashlari o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi " nomli romanidagi Qora amma, Robiya kabi obrazlar o'zbek qizining bo'ysunuvchanlik mehridaryolik, bag'rikenglik va oqko'ngillilik kabi hislatlarining yorqin namoyondalaridir. Quyida ular

³ Ho'jamberdiyeva D.R. O'zbek ayollari nutqining lingvistik tahlili. 2022. www.caajsr.uz

nutqidan misol keltirish o'rnida qora amma qanchalar mehridaryo, ochiqko'ngil o'zbek ayoli ekanligini hayolan gavdalantirishga harakat qildik:

«Qora amma!»⁴ Bizlar keldik

– *Voy amming aylansin! Voy amming o'rgilsin sendan! – U pildirab kelib meni bag'riga bosdi. Dimo-g'imga qatiq hidi urildi, yuzimdan o'payotganda oppoq sochini uchiga osib olgan so'lkavoy cho'lpilari bir-biriga urilib jiringlab ketdi.*

– «Qora amma», tangangizni o'ynasam maylimi?

– *Voy tanga sendan aylansin!*

Dadam yelkamga sekin turtdi.

– *Necha marta aytganman: «Qora amma» emas, amma degin, tentak!*

– *Seni ishing nima! – «Qora ammam» dadamga qarab iljaydi. – Qorani qora deydi-da!*

Qoraman! To'g'rimi? Yur, bolam!

Ammam qo'limdan tutib, ayvonga sudragan edi, orqadan dadamning ovozi keldi:

– *Men ketdim, opa. Kech qolyapman.*

– *Hoy, qayoqqa? – Ammam meni qo'yib, dadam tomonga talpindi: – Choy-poy ichmaysanmi?*

Bundan tashqari, ayollarimizning bolalarga nisbatan mehridaryo, duogo'yiligi yoki kattaga hurmat, kichikka izzat ila muloqotga kirishishi ham o'ziga xosliklardan biridir. O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”⁵ qissasidagi qahramonlardan biri Zebi xolaning quyidagi nutqi mehribon o'zbek onasining yaqqol misolidir:

– *Poshsha singlimdan qolgan yodgorim! – dedi u meni bag'riga bosarkan, bo'g'iq ovozd. O'zgin qo'li bilan yelkamga qoqib, og'ir-og'ir harsillab nafas oldi. – O'zimning shirin o'g'limdan o'rgilay, yaxshi o'tiribsanmi?*

Bolalikdan qulog'iga rayhon taqib yurishiga ko'nikib qolganim uchunmi, hozir ham undan rayhon isi anqib ketgandek bo'ldi.

– *Yuring, – dedim uyga boshlab. – Birpas dam oling.*

– *Yo'q, u yoqdamas, singlimning uyida o'tiraman. – Zebi xola og'ir-og'ir qadam bosgan, oyimning xonasiga qarab yurdi. – Singlimning joyida birpas o'tiray, – dediyu doim oyim o'tiradigan joyga, deraza tagiga cho'kdi. Bo'g'iq ovozi titrab uzoq tilovat qildi.*

– *Dunyo shunaqa ekan, jon bolam, – dedi o'ychan ovozd. – Hamma bir-bir ketaverarkan...*

– *Xudoga shukur, bolaginam o'zidan ko'paydi. Olti nevaraning duosini qilib o'tiribman. Valijonim bitta bo'lsa ham o'ntaga tatiydigan chiqdi. – Zebi xola shoshilmasdan choy ho'plarkan, devordagi mixga ilig'lik duxoba g'iloqli dutorga qarab-qarab qo'ydi. Oyim dutorni juda avaylar, “adangan qolgan yodgorlik”, deb doim ko'z o'ngida saqlardi. Shu ondayoq bolalikdagi xotiralar, Zebi xolaning dutor chalganlari esimga tushdi.*

– *Mayli, bolam, men bora qolay endi.*

⁴ Hoshimov. O'. “Ikki eshik orasi”. Roman. T «Sharq», 2012.24-bet.

⁵ Internet ma'lumoti. <https://malumot.ru/o%CA%BBris-bolaning-oyisi/>

Misoldan anglashiladiki, o'zbek ayollarining nutqi ona, rafiq va kelin, qiz sifatida madaniyatning o'ziga xos ko'rinishlarini ijobiy bo'yoqdorlik hosil qilgan holda mujasamlashtiradi. Ayollarimiz nutqi orqali o'zbekim madaniyati haqida uning muomalasi, xulqi nutqi haqida umumiy xulosalarga ega bo'lish mumkin.

Ammo, ayollarimiz nutqiga xos bo'lgan yana shunday bir jihat borki, u nutqda salbiy bo'yoqdorlikni hosil qiladi va afsuski, u nutq ko'rkiga putur yetkazish orqali o'ziga xoslikni hosil qiladi. Bu jihat o'z ichiga qarg'ish, so'kish, gap aytish kabi lingvomadaniy birliklarni qamrab oladi. Yanada aniqroq ifodalaydigan bo'lsak, yuqorida keltirib o'tgan misollarimizdagi obrazlarimiz (mehridaryo ona Zebi xola va ochiqko'ngil Qora amma) o'z o'rnida ijobiy madaniy birliklar bilan birga salbiy birliklardan ham o'z nutqlarida foydalanadilar va haqiqiy o'zbekka xos nutqiy ko'rinishni shakllantirishadi. Misol qilib, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariqevni minib" nomli romanidagi Hoshimjon va uning onasi nutqidan misollar keltiramiz:

Nimadedingiz,oyi? Nega tovuqlarga don bermading, deyapman, nima, qulog'ing devorning ostida qolganmi?

Bir haftadan beri suv berganim yo'q. Tuxumini bir yoia poroshok qilib tug'avorsin! deb baqirdim. Teringga somon tiqmasammi! dedi oyim tayoqni o'qtalib.

Dars tayyorlamasang, uy ishlariga qarashmasang, singillaringga kun bermasang, kunbo'yi mushtlashsang seni o'ldirib qo'ya qolmasammi, deb oyim qo'lidagi tayoqni menga qarab otdi. Chap berib qoldim. Yo'qol, ko'zinga ko'rinma!

Shu kabi ayollarimiz nutqida qo'llanuvchi so'kish so'zlar tonglovchida salbiy taassurot qoldiradi, albatta.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, lingvokulturologiya insoniyat, mamlakat, xalq va ushbu xalq yuzaga chiqargan madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'zgacha nutq birliklari va ularning so'zlashuv jarayonidagi ko'rinishlarini o'rganib, tadqiq qilib boruvchi sohadir. O'zbek ayollari nutqidagi lingvomadiy birliklar esa ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni birlashtirib o'zgacha nutq shaklini gavdalantiradi. O'zbek milliy madaniyatida ayollarga xos bo'lgan nutqiy muomala, nutqiy etiketning verbal shakli o'ziga xos tarzda ifodalanishi tahlillarimizda aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.R. Ho'jamberdiyeva. O'zbek ayollari nutqining lingvistik tahlili, 2022. www.caajsr.uz.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. (Lingvomadaniyatshunoslik asoslari). – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 168 b.
3. Narmurodova G.I. The indicator of the use of verbal and non-verbal forms of communication in the speech etiquette of condolences in English and Uzbek languages. //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2023. P. 230-233.

⁶ Internet ma'lumoti. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xudoyberdi-to-xtaboyev-1933/xudoyberdi-to-xtaboyev-sariq-devni-minib-roman>

4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent: Universitet, 2014. 104 b.
5. O'. Hoshimov. "Ikki eshik orasi". Roman. T «Sharq», 2012.24-bet.
6. Internet ma'lumoti. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/xudoyberdi-to-xtaboyev-1933/xudoyberdi-to-xtaboyev-sariq-devni-minib-roman>.